



# NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil  
yanvar-avgust

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-avgust)

70,7



**Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi, % da**

4 411,4




**Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'mda**

67,3




**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da**




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- sentabr holatiga ko'ra)




## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-avgust)




## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari




### Soni, birlikda



### Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari




## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-avgust)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-avgust)



<sup>1)</sup> Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Tuman(shahar)lar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-avgust)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Namangan viloyati</b>	13 589,4	<b>100,0</b>	<b>111,4</b>
Namangan sh.	5 686,5	41,8	114,7
<b><i>tumanlar:</i></b>			
Mingbuloq	493,8	3,6	109,9
Kosonsoy	670,4	4,9	110,7
Namangan t.	702,0	5,2	109,2
Norin	584,0	4,3	109,1
Pop	845,7	6,2	109,5
To'raqo'rg'on	844,4	6,2	106,3
Uychi	816,4	6,0	108,5
Uchqo'rg'on	646,3	4,8	110,3
Chortoq	742,9	5,5	112,4
Chust	904,9	6,7	106,6
Yangiqo'rg'on	652,2	4,8	109,2


## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-avgust)

■ Hajmi, ming so'mda  
● O'sishi (kamayishi), % da




## Tuman(shahar)lar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-avgust)

■ Hajmi, ming so'mda  
◆ O'sish sur'ati, % da



## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-avgust)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar sub'yektlarining ulushi 67,3 foizni, shu jumladan, 21,0 foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Tuman(shahar)lar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik

(2024- yil yanvar-avgust)

Namangan sh.	2794,6	+20,2
Chust	696,8	+12,9
Uychi	670,4	+12,0
To'raqo'rg'on	641,4	+13,2
Pop	616,2	+16,6
Namangan t.	599,7	+14,1
Chortoq	582,5	+12,6
Yangiqo'rg'on	560,0	+12,3
Kosonsoy	549,1	+16,0
Uchqo'rg'on	520,9	+14,8
Norin	488,8	+12,6
Mingbuloq	422,4	+13,8

■ Hajmi, mlrd so'mda    ⚙️ O'sishi, % da



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-avgust)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>13 589,4</b>	<b>100,0</b>	<b>111,4</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	752,0	5,5	116,2
Moliyaviy xizmatlar	2 084,9	15,4	100,4
Transport xizmatlari	2 531,6	18,6	119,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 150,4	15,8	117,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	412,3	3,0	114,0
Savdo xizmatlari	4 154,8	30,6	112,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	332,6	2,5	109,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	791,4	5,8	126,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	312,7	2,3	108,2
Ijara xizmatlari	214,0	1,6	100,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	408,1	3,0	108,0
Shaxsiy xizmatlar	953,1	7,0	107,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	136,6	1,0	103,6
Boshqa xizmatlar	505,3	3,7	104,5

## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)



## Tuman(shahar)lar kesimida moliyaviy xizmatlar


(2024- yil yanvar-avgust, mlrd so'mda)

Namangan sh.	1 433,2
Chust	116,5
To'raqo'rg'on	74,9
Chortoq	70,2
Uchqo'rg'on	65,4
Pop	65,3
Uychi	62,8
Kosonsoy	48,4
Namangan t.	45,9
Yangiqo'rg'on	37,7
Mingbuloq	33,6
Norin	31,0

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-avgust)

Yordamchi moliyaviy faoliyat




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-avgustida 94,0** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **68,7** foizni yoki **1 433,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-avgust** oylariga nisbatan ham Namangan shahrida yuqori o'sish sur'ati **105,4** foizni tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)

**2024- yil yanvar-avgust** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismini, ya'ni **30,6** foizni tashkil etdi.



## Tuman(shahar)lar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-avgust)




Tuman(shahar)	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Namangan sh.	1332,3	+20,6
To'raqo'rg'on	315,7	+4,7
Chortoq	288,3	+18,8
Chust	276,3	+2,8
Uychi	276,1	+9,9
Pop	273,3	+5,5
Yangiqo'rg'on	250,9	+12,1
Namangan t	249,2	+10,4
Norin	240,2	+10,3
Kosonsoy	234,9	+11,7
Uchqo'rg'on	233,3	+11,1
Mingbuloq	184,3	+10,3

■ Hajmi, mlrd so'mda    □ O'sishi, % da


## Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)

Transport xizmatlari-ning umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **18,6** foiz.

Namangan shahrida transport xizmatlari hajmi **906,8** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **127,2** foizni tashkil etgan.




## Tuman(shahar)lar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-avgust)




## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)

**2024- yilning yanvar-avgust** oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2150,4** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **15,8 %** ni tashkil etdi.



## Tuman(shahar)lar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

(2024- yil yanvar-avgust)



**2024- yil yanvar-avgust** oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **85,0** foizga yetdi.

Avtomobil transporti umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **30,0** foizni yoki **642,0** mlrd so'mni tashkil etdi.


## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmi telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-avgust** oylaridagi ulushi **86,0 %** ni tashkil etdi.




## Tuman(shahar)lar aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-avgust)



## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-avgust)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-avgust** oylaridagi ulushi **59,3** foizni tashkil etdi.



## Tuman(shahar)lar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-avgust, mlrd so'mda)

Namangan sh.	590,4
Uychi	46,2
To'raqo'rg'on	28,6
Kosonsoy	26,0
Pop	15,7
Yangiqo'rg'on	15,0
Norin	14,4
Chortoq	13,5
Namangan t.	11,4
Uchqo'rg'on	11,2
Chust	11,2
Mingbuloq	7,8



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Namangan shahriga to'g'ri keladi. **2024-yilning yanvar-avgust** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmat hajmi **590,4** mlrd so'mga yetdi yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **87,2** foizini tashkil etadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-avgust** oylaridagi ulushi **43,4** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **31,2** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **25,4** foizni tashkil etdi.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)



## Tuman(shahar)lar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-avgust)

Namangan sh.	150,1	◆	+11,4
Chortoq	30,0	◆	+6,5
To'raqo'rg'on	29,3	◆	-21,0
Kosonsoy	21,4	◆	+16,5
Namangan t.	18,8	◆	+14,9
Chust	13,9	◆	+14,8
Pop	12,9	◆	+14,5
Uchqo'rg'on	10,0	◆	+19,2
Yangiqo'rg'on	9,1	◆	+18,4
Uychi	8,5	◆	+17,6
Mingbuloq	4,9	◆	+13,1
Norin	3,8	◆	+14,7

■ Hajmi, mlrd so'mda    ◆ O'sishi, % da



## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar-avgust)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **91,0** foizni tashkil etdi.

## Tuman(shahar)lar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-avgust)




■ Hajmi, mlrd so'mda

🏠 O'sishi, % da

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)

**2024- yil yanvar-avgust** oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **3,0 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **83,1** foiz.



## Tuman(shahar)lar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-avgust)



## Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-avgust)



## Tuman(shahar)lar kesimida ijara xizmatlari


(2024- yil yanvar-avgust, mlrd so'mda)



**2024-yilning yanvar-avgust** oylarida ijara xizmatlari hajmi **214,0** mlrd so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **32,7** foizni tashkil etadi.

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **20,2** foizini tashkil etadi.

## Tuman(shahar)lar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-avgust)



## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)



## Tuman(shahar)lar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-avgust, mlrd so'mda)

Namangan sh.	109,3
Namangan t.	6,2
To'raqo'rg'on	4,9
Kosonsoy	3,9
Pop	3,0
Yangiqo'rg'on	2,4
Uychi	2,1
Mingbuloq	1,4
Chust	1,4
Uchqo'rg'on	1,1
Chortoq	0,5
Norin	0,4



**2024- yilning yanvar-avgust** oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **136,6** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **80,0** foizni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

**Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi** – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

**Yuridik xizmatlar hajmi** fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.